ASOSIY SOTSIOLOGIK PARADIGMALAR: JAMIYATNI O‘RGANISHNING NAZARIY YONDASHUVLARI

G‘ofurova Robiyabonu G‘ulom qizi
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti
Psixologiya va sotsiologiya kafedrasi
Sotsiologiya yo‘nalishi, bakalavriat 1-bosqich talabasi.
gofurovarobiyabonugofurova2008@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.24401391

Annotatsiya. *Mazkur maqolada sotsiologiya fanining nazariy asosini tashkil etuvchi asosiy sotsiologik paradigmalar, ularning shakllanish tarixi, ilmiy mohiyati va jamiyatni o‘rganishdagi metodologik ahamiyati tahlil qilinadi. Xususan, strukturaviy funksionalizm, konflikt paradigmasi va simvolik interaksionizmning asosiy tamoyillari, taniqli namoyandalari hamda ijtimoiy hodisalarni izohlashdagi imkoniyatlari yoritiladi. Shuningdek, fenomenologik yondashuv va ijtimoiy almashinuv nazariyasining sotsiologik tafakkur rivojidagi o‘rni ko‘rib chiqiladi. Maqolada ta’lim, oila, ijtimoiy tengsizlik, yoshlar muammolari va kundalik munosabatlar misolida paradigmalar qiyosiy tahlil qilinadi. Har bir paradigmaning afzalliklari bilan bir qatorda, uning cheklovlari ham ilmiy nuqtayi nazardan baholanadi.*

Kalit so‘zlar: *sotsiologiya, paradigma, strukturaviy funksionalizm, konflikt nazariyasi, simvolik interaksionizm, fenomenologiya, ijtimoiy almashinuv.*

Kirish

Jamiyat doimiy ravishda rivojlanib, o‘zgarib boradigan murakkab ijtimoiy tizim hisoblanadi. Unda insonlar o‘rtasidagi munosabatlar, ijtimoiy guruhlar, iqtisodiy jarayonlar, siyosiy munosabatlar, madaniy qadriyatlar va turli ijtimoiy institutlar o‘zaro ta’sirda shakllanadi.

Ushbu jarayonlarni chuqur anglash va ilmiy jihatdan izohlash sotsiologiya fanining asosiy vazifalaridan biridir.

Jamiyatdagi biror hodisani faqat bitta sabab yoki bitta nuqtayi nazar orqali tushuntirish ko‘pincha yetarli bo‘lmaydi. Masalan, yoshlar orasidagi ishsizlikni o‘rganishda bir tadqiqotchi iqtisodiy imkoniyatlar va mehnat bozori holatiga e’tibor qaratsa, boshqasi ta’lim tizimidagi kamchiliklarni, yana biri esa insonlarning ijtimoiy munosabatlari va shaxsiy qarashlarini asosiy omil sifatida ko‘rishi mumkin. Bu farqlar sotsiologik paradigmalar bilan bog‘liq.

Paradigma tushunchasi ilmiy bilish jarayonida muayyan hodisalarni o‘rganish, tahlil qilish va izohlash uchun xizmat qiladigan nazariy qarashlar, tamoyillar va metodlar tizimini anglatadi. Sotsiologiyada paradigma jamiyatga qanday qarash, ijtimoiy muammolarni qanday savollar asosida o‘rganish va olingan natijalarni qanday izohlashni belgilab beradi.

Zamonaviy sotsiologik tafakkurda uchta asosiy paradigma — strukturaviy funksionalizm, konflikt nazariyasi va simvolik interaksionizm alohida o‘rin egallaydi. Ular jamiyatni turli darajalarda va turli ilmiy nuqtayi nazarlardan o‘rganadi. Birinchi paradigma ijtimoiy tartib va barqarorlikni, ikkinchisi ziddiyat va tengsizlikni, uchinchisi esa insonlar o‘rtasidagi kundalik munosabatlar va ramzlar orqali shakllanadigan ma’nolarni asosiy tadqiqot obyekti sifatida ko‘radi.

Mazkur maqolaning maqsadi asosiy sotsiologik paradigmalarni nazariy jihatdan tahlil qilish, ularning o‘zaro farqlarini aniqlash va zamonaviy jamiyatdagi ijtimoiy jarayonlarni tushuntirishdagi ahamiyatini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotda ilmiy adabiyotlarni o‘rganish, qiyosiy tahlil, tarixiy-nazariy yondashuv va umumlashtirish metodlaridan foydalanildi. Klassik hamda zamonaviy sotsiologik manbalar asosida asosiy paradigmalar o‘zaro solishtirildi.

Strukturaviy funksionalizm paradigmasi

Strukturaviy funksionalizm sotsiologiyaning muhim nazariy yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, jamiyatni o‘zaro bog‘langan qismlardan tashkil topgan yaxlit tizim sifatida talqin qiladi. Ushbu paradigmaning asosiy g‘oyasi shundan iboratki, jamiyatdagi har bir ijtimoiy institut muayyan vazifani bajaradi va umumiy ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashga xizmat qiladi.

Mazkur yondashuvning shakllanishida Gerbert Spenser, Emil Dyurkgeym va Talkott Parsonsning ilmiy qarashlari katta ahamiyatga ega. Gerbert Spenser jamiyat va inson organizmi o‘rtasida o‘xshashlik mavjudligini ta’kidlagan. Uning fikricha, inson organizmidagi yurak, o‘pka va boshqa a’zolar birgalikda faoliyat yuritgani kabi, jamiyatdagi oila, ta’lim, davlat, iqtisodiyot va din kabi institutlar ham o‘zaro bog‘liq holda ishlaydi.

Emil Dyurkgeym esa jamiyatning barqarorligi, ijtimoiy birdamlik va umumiy qadriyatlarning ahamiyatini ilmiy jihatdan asoslashga harakat qilgan. Uning fikricha, jamiyat faqat alohida insonlar yig‘indisidan iborat emas, balki insonlarning xatti-harakatlariga ta’sir ko‘rsatuvchi mustaqil ijtimoiy munosabatlar va me’yorlar tizimidir.

Talkott Parsons strukturaviy funksionalizmni yanada rivojlantirib, jamiyatning barqaror faoliyat yuritishi uchun muayyan funksiyalar bajarilishi zarurligini ta’kidlagan. Robert Merton esa ochiq va yashirin funksiyalar, shuningdek, disfunksiya tushunchalarini ilmiy muomalaga kiritib, funksional tahlilni yanada takomillashtirgan.

Masalan, ta’lim tizimini strukturaviy funksionalizm nuqtayi nazaridan tahlil qiladigan bo‘lsak, maktab va oliy ta’lim muassasalari nafaqat bilim beradi, balki yosh avlodni ijtimoiy hayotga tayyorlaydi, kasbiy malaka shakllantiradi va jamiyatning madaniy qadriyatlarini keyingi avlodga yetkazadi. Oila esa insonning dastlabki ijtimoiylashuv muhiti hisoblanadi.

Ushbu paradigmaning muhim jihatlaridan biri ochiq va yashirin funksiyalarni farqlashidir. Masalan, oliy ta’lim muassasasining ochiq funksiyasi talabalarga kasbiy bilim berish bo‘lsa, yashirin funksiyalaridan biri do‘stlik aloqalarini shakllantirish, ijtimoiy tajriba orttirish va kelajakdagi kasbiy aloqalarni rivojlantirishdir.

Biroq strukturaviy funksionalizmning ayrim cheklovlari ham mavjud. Ushbu yondashuv jamiyatdagi tartib va barqarorlikka ko‘proq e’tibor qaratgani sababli, ijtimoiy tengsizlik, adolatsizlik va keskin o‘zgarishlarni yetarlicha chuqur izohlay olmasligi mumkin. Shunga qaramay, u ijtimoiy institutlarning o‘zaro bog‘liqligini tushunishda muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Konflikt paradigmasi

Konflikt paradigmasi jamiyatni turli ijtimoiy guruhlar o‘rtasida manfaatlar, resurslar, hokimiyat va imkoniyatlar uchun kurash mavjud bo‘lgan tizim sifatida o‘rganadi. Ushbu yondashuvga ko‘ra, jamiyatdagi barcha insonlar va guruhlar bir xil iqtisodiy hamda ijtimoiy imkoniyatlarga ega emas. Shu sababli manfaatlar to‘qnashuvi va ijtimoiy ziddiyatlar tabiiy ravishda yuzaga keladi.

Konflikt nazariyasining rivojlanishida nemis faylasufi va iqtisodchisi Karl Marksning ilmiy qarashlari muhim o‘rin tutadi. Marks jamiyat taraqqiyotini ishlab chiqarish munosabatlari, iqtisodiy manfaatlar va ijtimoiy sinflar o‘rtasidagi ziddiyatlar bilan bog‘lagan. Uning fikricha, jamiyatdagi asosiy ziddiyatlardan biri ishlab chiqarish vositalariga egalik qiluvchi sinf va o‘z mehnatini sotish orqali yashovchi sinf o‘rtasida yuzaga keladi.

Keyinchalik Maks Veber ham ijtimoiy tengsizlik masalasini kengroq tahlil qilgan. U jamiyatdagi tabaqalanishni faqat iqtisodiy holat bilan cheklamagan, balki hokimiyat, ijtimoiy mavqe va obro‘ kabi omillarni ham hisobga olish zarurligini ta’kidlagan.

Konflikt paradigmasining asosiy xususiyati jamiyatdagi imkoniyatlar tengsizligi va resurslarning notekis taqsimlanishiga e’tibor qaratishidir. Masalan, ta’lim sohasida barcha yoshlar bir xil sharoitda o‘qish imkoniyatiga ega emas. Ayrim oilalar farzandlariga qo‘shimcha ta’lim, xorijiy til kurslari va zamonaviy texnologiyalardan foydalanish imkoniyatini yaratib bera olsa, iqtisodiy jihatdan zaif oilalar bunday imkoniyatlardan cheklanishi mumkin. Natijada ta’lim olishdagi farqlar kelajakdagi kasbiy va iqtisodiy imkoniyatlarga ham ta’sir ko‘rsatadi.

Yana bir misol sifatida mehnat bozorini ko‘rib chiqish mumkin. Ayrim xodimlar yuqori maosh, qulay mehnat sharoiti va ijtimoiy kafolatlarga ega bo‘lsa, boshqalari kam ish haqi va beqaror mehnat sharoitida faoliyat yuritadi. Konflikt paradigmasi ushbu farqlarning kelib chiqish sabablari, iqtisodiy manfaatlar va hokimiyat munosabatlarini o‘rganadi.

Ushbu paradigmaning afzalligi shundaki, u jamiyatdagi yashirin muammolar, ijtimoiy adolatsizlik, tabaqalanish va imkoniyatlar tengsizligini ochib berishga yordam beradi. Shu bilan birga, uning cheklovi shundaki, jamiyatdagi barcha munosabatlarni faqat kurash va ziddiyat bilan izohlash to‘g‘ri emas. Chunki jamiyatda hamkorlik, birdamlik, o‘zaro yordam va umumiy manfaatlar ham muhim o‘rin tutadi.

Simvolik interaksionizm paradigmasi

Simvolik interaksionizm jamiyatni insonlar o‘rtasidagi kundalik muloqot, o‘zaro munosabatlar va ramzlar orqali shakllanadigan ijtimoiy voqelik sifatida o‘rganadi. Ushbu paradigma makro darajadagi yirik ijtimoiy tizimlardan ko‘ra, insonlarning kundalik hayoti, kichik guruhlar va bevosita muloqot jarayonlariga ko‘proq e’tibor qaratadi.

Simvolik interaksionizmning shakllanishida amerikalik faylasuf va sotsiolog Jorj Herbert Mid muhim o‘rin egallaydi. Keyinchalik uning g‘oyalarini Gerbert Blumer rivojlantirib, 1937-yilda «simvolik interaksionizm» atamasini ilmiy muomalaga kiritgan.

Ushbu paradigmaning asosiy tamoyiliga ko‘ra, insonlar atrofdagi narsa va hodisalarga ular uchun mavjud bo‘lgan ma’nolar asosida munosabat bildiradi. Bu ma’nolar esa ijtimoiy muloqot va o‘zaro ta’sir jarayonida shakllanadi hamda o‘zgaradi.

Masalan, universitet talabasi uchun diplom oddiy hujjat emas, balki ko‘p yillik mehnat, bilim, muvaffaqiyat va kelajakdagi kasbiy imkoniyatlarning ramzi bo‘lishi mumkin. Boshqa bir inson uchun esa diplom shunchaki ma’lum bir ta’lim bosqichini tugatganlikni tasdiqlovchi hujjat sifatida qabul qilinadi. Demak, bir xil predmet turli insonlar uchun turlicha ijtimoiy ma’noga ega bo‘lishi mumkin.

Simvolik interaksionizmning yana bir muhim jihati insonning jamiyatdagi o‘zligini shakllantirish jarayonidir. Inson o‘zini qanday shaxs sifatida anglashida oila, do‘stlar, o‘qituvchilar va boshqa ijtimoiy guruhlarning munosabati katta ahamiyatga ega.

Masalan, yosh mutaxassisga ish joyida ishonch bildirilishi, uning fikrlari tinglanishi va mas’uliyatli vazifalar topshirilishi unda o‘z kasbiga nisbatan ishonchni kuchaytirishi mumkin.

Aksincha, doimiy kamsitish va salbiy munosabat insonning o‘z imkoniyatlariga bo‘lgan ishonchini pasaytirishi ehtimoli bor.

Erving Goffman ham kundalik ijtimoiy munosabatlarni o‘rganishga katta hissa qo‘shgan.

U o‘zining dramaturgik yondashuvida insonlarning kundalik hayotdagi xatti-harakatlarini sahnadagi aktyorlar faoliyatiga qiyoslagan.

Uning fikricha, insonlar turli ijtimoiy vaziyatlarda o‘zlarini muayyan tarzda namoyon etishga va boshqalarda ma’lum taassurot uyg‘otishga harakat qiladilar.

Masalan, talaba universitetda o‘qituvchilari bilan, uyida ota-onasi bilan, do‘stlari davrasida esa boshqacha muloqot qilishi mumkin. Bu holat insonning turli ijtimoiy vaziyatlarga moslashishini ko‘rsatadi.

Simvolik interaksionizmning afzalligi inson xatti-harakatlari ortidagi ma’no va motivlarni chuqur tushuntirishidir. Biroq ushbu paradigma yirik iqtisodiy, siyosiy va institutsional jarayonlarni o‘rganishda cheklangan bo‘lishi mumkin.

Fenomenologik paradigma va ijtimoiy almashinuv yondashuvi

Yuqorida ko‘rib chiqilgan uchta asosiy paradigma bilan bir qatorda, sotsiologik tafakkurda fenomenologik yondashuv va ijtimoiy almashinuv nazariyasi ham muhim ahamiyatga ega. Fenomenologik sotsiologiyaning rivojlanishida Alfred Shyutsning qarashlari alohida o‘rin tutadi. Ushbu yondashuv insonlarning kundalik hayotdagi tajribasi, voqelikni qanday anglashlari va ijtimoiy hodisalarga qanday ma’no berishlarini o‘rganadi. Fenomenologik yondashuvga ko‘ra, jamiyatni tushunish uchun faqat tashqi kuzatuv va statistik ma’lumotlar bilan cheklanib qolmasdan, insonlarning shaxsiy tajribasi va subyektiv qarashlarini ham o‘rganish zarur.

Masalan, bir xil universitetda ta’lim olayotgan ikki talabaning o‘qishga munosabati turlicha bo‘lishi mumkin. Biri universitetni kelajakdagi muvaffaqiyatga olib boruvchi imkoniyat sifatida ko‘rsa, ikkinchisi uni faqat diplom olish vositasi deb hisoblashi mumkin. Fenomenologik yondashuv aynan mana shu farqli tajriba va tushunchalarni tahlil qiladi.

Ijtimoiy almashinuv nazariyasi esa insonlar o‘rtasidagi munosabatlarni manfaat, foyda, xarajat va o‘zaro kutishlar nuqtayi nazaridan o‘rganadi. Ushbu nazariyaning rivojlanishida Jorj Homans va Piter Blau muhim hissa qo‘shgan.

Mazkur yondashuvga ko‘ra, insonlar ijtimoiy munosabatlarda nafaqat moddiy, balki ma’naviy manfaatlarni ham hisobga oladilar. Masalan, do‘stlik munosabatlarida ishonch, hurmat, yordam va e’tibor muhim o‘rin tutadi. Inson biror munosabatdan faqat moddiy foyda emas, balki ruhiy qo‘llab-quvvatlash va ijtimoiy yaqinlikni ham kutishi mumkin.

Biroq barcha insoniy munosabatlarni oddiy foyda va zarar hisob-kitobi bilan izohlash mumkin emas. Chunki mehr, sadoqat, fidoyilik va beg‘araz yordam kabi qadriyatlar ham ijtimoiy hayotning ajralmas qismidir.

Asosiy sotsiologik paradigmalar o‘rtasidagi farqlar va o‘zaro bog‘liqlik

Sotsiologik paradigmalar bir-biridan o‘rganish obyekti, nazariy qarashlari va tahlil darajasi bilan farqlanadi. Biroq ularning barchasi jamiyatdagi ijtimoiy jarayonlarni chuqurroq anglashga xizmat qiladi.

Strukturaviy funksionalizm jamiyatning yaxlitligi, ijtimoiy institutlarning vazifalari va barqarorlik masalalariga e’tibor qaratadi. Konflikt paradigmasi ijtimoiy guruhlar o‘rtasidagi manfaatlar to‘qnashuvi, hokimiyat va tengsizlikni o‘rganadi. Simvolik interaksionizm esa insonlarning kundalik muloqoti, ramzlar va ijtimoiy ma’nolarni shakllantirish jarayonini tahlil qiladi.

Ushbu farqlarni yoshlar orasidagi ishsizlik muammosi misolida ko‘rish mumkin.

Strukturaviy funksionalizm nuqtayi nazaridan, yoshlar ishsizligi ta’lim tizimi va mehnat bozori o‘rtasidagi nomuvofiqlik, kasbiy tayyorgarlik hamda ijtimoiy institutlar faoliyati bilan bog‘liq holda o‘rganiladi.

Konflikt paradigmasi esa ish o‘rinlariga kirish imkoniyatlarining teng taqsimlanmasligi, ijtimoiy aloqalar, iqtisodiy imkoniyatlar va tabaqalanishning ta’sirini tahlil qiladi.

Simvolik interaksionizm nuqtayi nazaridan, ishsiz yoshlarning o‘ziga bo‘lgan munosabati, jamiyatning ularga nisbatan qarashlari, suhbat jarayonidagi munosabat va ijtimoiy tamg‘alash holatlari o‘rganiladi.

Fenomenologik yondashuv yoshlarning ishsizlikni qanday his qilishi va shaxsiy tajribasida qanday talqin qilishiga e’tibor beradi. Ijtimoiy almashinuv nazariyasi esa ish beruvchi va ish izlovchi o‘rtasidagi manfaatlar, kutilmalar va o‘zaro munosabatlarni tahlil qiladi.

Demak, bitta ijtimoiy muammoni turli paradigmalar asosida o‘rganish uning turli qirralarini aniqlash imkonini beradi. Hech bir paradigma barcha ijtimoiy hodisalarni yakka holda to‘liq tushuntirib bera olmaydi. Shu sababli zamonaviy sotsiologik tadqiqotlarda turli nazariy yondashuvlarni o‘zaro uyg‘unlashtirish muhim hisoblanadi.

Xulosa

Asosiy sotsiologik paradigmalar jamiyatni ilmiy jihatdan o‘rganish, ijtimoiy hodisalarning kelib chiqish sabablari va rivojlanish qonuniyatlarini tushuntirishda muhim nazariy asos hisoblanadi. Strukturaviy funksionalizm jamiyatning yaxlitligi va barqarorligini, konflikt paradigmasi ijtimoiy tengsizlik va manfaatlar to‘qnashuvini, simvolik interaksionizm esa insonlar o‘rtasidagi kundalik munosabatlar va ma’nolar shakllanishini o‘rganadi. Fenomenologik yondashuv va ijtimoiy almashinuv nazariyasi esa ushbu ilmiy qarashlarni yanada boyitadi.

Maqolada olib borilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, jamiyatdagi biror muammoni to‘g‘ri tushunish uchun uni turli nazariy nuqtayi nazarlardan o‘rganish zarur. Chunki ijtimoiy hodisalar iqtisodiy, siyosiy, madaniy va psixologik omillarning o‘zaro ta’siri natijasida shakllanadi.

Ayniqsa, bugungi globallashuv, raqamlashtirish, urbanizatsiya va ijtimoiy munosabatlarning o‘zgarishi sharoitida sotsiologik paradigmalarni chuqur o‘rganish alohida ahamiyat kasb etadi. Masalan, ijtimoiy tarmoqlarning yoshlar hayotiga ta’sirini strukturaviy funksionalizm orqali ijtimoiy institutlar faoliyati bilan, konflikt nazariyasi orqali axborot va imkoniyatlar tengsizligi bilan, simvolik interaksionizm orqali esa virtual muloqot va shaxsiy identifikatsiya bilan bog‘lab tahlil qilish mumkin.

Shunday qilib, sotsiologik paradigmalarni o‘rganish nafaqat nazariy bilimlarni shakllantiradi, balki insonning jamiyatdagi o‘rnini anglash, ijtimoiy muammolarga tanqidiy yondashish va ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish qobiliyatini ham rivojlantiradi.

Sotsiologiyaning ilmiy ahamiyati ham aynan jamiyatni bir tomonlama emas, balki uning barcha murakkab jihatlarini hisobga olgan holda o‘rganishida namoyon bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Bekmurodov M. B., Ota-Mirzayev O. B., Ubaydullaeva R. A., Aliqoriyev N. S. Sotsiologiya: o‘quv qo‘llanma. — Toshkent: A. Qodiriy nomidagi Xalq merosi nashriyoti, 2002. — 292 b.
2. Aliqoriyev N. S. Umumiy sotsiologiya: darslik. — Toshkent: Uchqun, 1999. — 183 b.
3. Jiyanmuratova G. Sh. Sotsiologiya tarixi: darslik. — Toshkent: Innovatsiya-Ziyo, 2020. — 466 b. ISBN 978-9943-6433-1-4.
4. Aliev B., Rafiqov G‘., Sultonov T., Mullajonova M., Rahmonov B. va boshq. Sotsiologiya: o‘quv qo‘llanma. — Toshkent: TDYuI nashriyoti, 2006.
5. Toshpo‘lotov Sh. E. Sotsiologiya: darslik. — Toshkent: Toshkent davlat yuridik universiteti, 2025. — 224 b. ISBN 978-9910-554-56-8.